

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI

KOMPLAYENS VA KORRUPSIYAGA QARSHI

ICHKI NAZORAT BOSHQARMASI



SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMI XODIMLARI UCHUN
KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISHGA DOIR

QO'LLANMA

Halollik — kasbiy burchimiz

T O S H K E N T - 2 0 2 6

“

*“Tibbiyot xodimlari bizning salomatligimiz posbonlaridir.
Ularga xalq ishonishi, ular esa xalqni ishontira olishi kerak”*

Sh.M. Mirziyoyev


MUNDARIJA

- 01 1. SOG'LIQNI SAQLASH SOHASIDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH
- 02 2. TIBBIYOT SOHASIDA ENG KO'P UCHRAYDIGAN KORRUPSIYAVIY HUQUQBUZARLIKLAR VA JINOYATLAR!
- 03 3. KORRUPSIYA ISHTIROKCHILARI KIMLAR?
- 04 4. KORRUPSIYA SHUNCHALIK XAVFLIMI?
- 05 5. KORRUPSIYAGA OID HUQUQBUZARLIKLAR UCHUN QANDAY JAZO BELGILANGAN?
- 06 6. SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMI XODIMI UCHUN ESLATMA!
- 07 7. AGAR SIZ KORRUPSIYA HAQIDA MUROJAAT QILMOQCHI BO'LSANGIZ...
- 08 8. KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH BO'YICHA ICHKI IDORAVIY MEXANIZMLAR
- ♦ ALOQA KANALLARI HAQIDAGI MA'LUMOTLAR
- ♦ MANFAATLAR TO'QNASHUVI HOLATLARI
- ♦ "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi Qonunning mazmun-mohiyati va ahamiyati
- ♦ MANFAATLAR TO'QNASHUVI HOLATLARI (VAZIRLIK TIZIMIDA)
- ♦ KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISHGA OID MILLIY QONUNCHILIK HUJJATLARINING RO'YXATI
- ♦ KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISHGA OID XALQARO HUJJATLAR RO'YXATI
- ♦ "Mazkur eslatma bilan to'liq tanishib chiqdim, korrupsiyaga yo'l qo'ymayman"

01

B O ' L I M

1.SOG'LIQNI SAQLASH SOHASIDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH



■ **Korrupsiya bu...(lotincha “corrumpere” “buzilish, aynish, tanazzul”) –**

o'z mansab mavqeidan foydalanib manfaat ko'rishdir.

Korrupsiyaga oid tushunchalar:

- korrupsiya — shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish;
- korrupsiyaga oid huquqbuzarlik — korrupsiya alomatlariga ega bo'lgan, sodir etilganligi uchun qonunchilikda javobgarlik nazarda tutilgan qilmish;
- korrupsiyaviy xavf-xatar — shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda mavjud sabab va sharoitlarda korrupsiyaviy xatti-harakatlarni sodir etish ehtimoli;
- korrupsiyaviy jinoyatlar — bu mansabdor shaxs yoki xizmatchining mansab mavqeidan shaxsiy yoki boshqa shaxslarning moddiy va nomoddiy naf ko'rish uchun g'arazli maqsadlarda foydalanishidan, shuningdek mansabdor shaxslarni ushbu maqsadlarda o'ziga og'dirishdan iborat bo'lgan jinoyat;
- manfaatlar to'qnashuvi — shaxsning shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorligi uning o'z lavozim yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir ko'rsatayotgan yoxud ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari, qonuniy manfaatlari o'rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan (mavjud manfaatlar to'qnashuvi) yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan (ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi) vaziyat;
- real manfaatlar to'qnashuvi — xodimning, uning yaqin qarindoshlarining yoki tashkilot bilan bog'liq bo'lgan shaxsning shaxsiy manfaatlari (shu jumladan shaxsiy, ijtimoiy, mulkiy, moliyaviy, siyosiy va boshqa manfaatlari) tashkilot manfaatlariga bevosita yoki bilvosita qarama-qarshi bo'lgan vaziyat;

potensial manfaatlar to'qnashuvi

xodimning, uning yaqin qarindoshlarining yoki tashkilot bilan bog'liq bo'lgan shaxsning shaxsiy manfaatlari (shu jumladan shaxsiy, ijtimoiy, mulkiy, moliyaviy va boshqa manfaatlari) muayyan vaziyatlar yuzaga kelganda, ular Tashkilotning manfaatlariga qarama-qarshi bo'lishi va tashkilot xodimlari tomonidan xizmat majburiyatlarini bajarishiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan vaziyat. Da'vo qilingan, o'zicha tushunib olingan (Perceived) manfaatlar to'qnashuvi - bunday vaziyatlarda hech qanday real yoki potensial xatar bo'lmasligi mumkin, ammo kimdir ushbu holat o'z oqibatlariga ega bo'lishi mumkinligi to'g'risida (albatta, asosli faktlar evaziga) o'ylashi mumkin. Misol uchun, tuman hududining uchta tibbiyot tashkilotida tabiiy ofat yuz berdi. Ofat yetgan tashkilotlarga davlat byudjetidan zararni qoplab berish topshirig'i tuman bo'limi mudiri zimmasiga yuklatildi. Tuman bo'limi mudirining ikki nafar singlisi ham ayni shu tashkilotlarda ishlaydi va buni bir qancha mahalla faollari biladi. E'tiborli jihati shuki, bo'lim boshlig'i mablag'larni to'g'ri sarflagan bo'lishi mumkin, ammo faollar bunga ishonmasligi, ya'ni ular o'zlaricha xavf borligi to'g'risida fikrlashlari mumkin;

- manfaatlar to'qnashuvining asosiy ko'rinishlari — nepotizm, ya'ni qarindosh-urug'chilik (shu jumladan quda-andichilik), guruhbozlik, kronizm, mahalliychilik, oshna-og'aynigarchilik, favoritizm (rahnamolik), lobbizm (idoraviy manfaatdorlik) va boshqalar;
- yaqin qarindoshlar — ota-onalar, aka-ukalar, opa-singillar, o'g'illar, qizlar, er-xotinlar, shuningdek er-xotinlarning ota-onalari, aka-ukalari, opa-singillari va farzandlari;
- qarindosh-urug'chilik — hududiy yoki etnik prinsiplar asosida davlat tuzilmalarida yoki boshqa tuzilmalarda tor guruhchilik manfaatlari bilan ish ko'radigan, aynan shu manfaatlarni birinchi o'ringa qo'yadigan uyushmalar (ko'pincha norasmiy uyushmalar). Qarindosh-urug'chilik umumiy ishga, umumdavlat, umumxalq manfaatlariga zarar keltirgan holda shakllanib, o'z maqsadlariga erishish uchun a'zolarini mavjud davlat, hokimiyat va boshqa pog'onalarda yuqori lavozimlarga ko'tarishga harakat qilar ekan, bunday holat oqibati halokatli hisoblanadi. Bunda jamiyatning barqarorligi va xavfsizligiga real tahdid soluvchi mahalliychilik va urug'-aymoqchilik rivojlanadi;
- boshqaruv tizimida manfaatlar to'qnashuvi — mansabdor shaxsning o'z manfaatlarini ko'zlab, jamiyat, davlat, yuridik va jismoniy shaxslarning manfaatlariga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan harakat yoki harakatsizligi;
- manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish bo'yicha maxsus bo'linma (bundan buyon matnda maxsus bo'linma deb yuritiladi) — davlat organlarining yoki boshqa tashkilotlarning korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'linmalari (va) yoki kadrlar bo'linmalari;
- korrupsiyaga qarshi ichki nazorat (komplaens-nazorat) — davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, tadbirkorlik subyektlari faoliyatining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi xalqaro standartlarga, milliy qonunchilik normalariga (qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar) muvofiq tashkil etilishini ta'minlovchi, jumladan, korrupsiya xavf-xatarlari va manfaatlar to'qnashuvini o'z vaqtida aniqlash va bartaraf etish, qonun buzilishi va korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida xabar berish mexanizmlari kabi qator profilaktik choralarni o'zida mujassam etgan samarali tizimdir;
- davlat organining yoki boshqa tashkilotning xodimi — davlat organlarida yoki boshqa tashkilotlarda mehnat shartnomasi (kontrakt) asosida yoxud saylab qo'yiladigan yoki tayinlanadigan lavozimlarda mehnat (xizmat) faoliyatini amalga oshirayotgan boshqaruv xodimi;
- shaxsiy manfaatdorlik — davlat organining yoki boshqa tashkilotning xodimi yoxud u bilan aloqador shaxslar ushbu xodim tomonidan bevosita yoki bilvosita qaror qabul qilinishi yoki xodimning ushbu jarayonda boshqacha tarzda ishtirok etishi natijasida olishi mumkin bo'lgan har qanday naf yoki afzallik;
- taalluqli (relevant) xabar — tashkilotdagi korrupsiyaviy holatlar va (yoki) manfaatlar to'qnashuvi haqidagi axborotdan iborat bo'lgan xabar;
- poraxo'rlik — pora olish, pora berish yoki bu jinoyatlarda vositachilik qilish;
- pora — ya'ni mansabdor shaxs yoki xizmatchi tomonidan o'z xizmat mavqeidan yoki o'z vakolatlaridan foydalangan holda sodir etishi lozim yoki mumkin bo'lgan muayyan harakatni pora berayotgan shaxsning manfaatlarini ko'zlab bajarishi yoki bajarmasligi evaziga unga beriladigan moddiy qimmatliklar yoxud mulkiy manfaatdorlik;

- pora olish — davlat organi, davlat ishtirokidagi tashkilot yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi mansabdor shaxsining o'z xizmat mavqeidan foydalangan holda sodir etishi lozim yoki mumkin bo'lgan muayyan harakatni pora berayotgan shaxsning manfaatlarini ko'zlab bajarishi yoki bajarmasligi evaziga shaxsan o'zi yoki vositachi orqali qonunga xilof ekanligini bila turib, moddiy qimmatliklar olishi yoxud mulkiy manfaatdor bo'lishi;
- pora berish — davlat organi, davlat ishtirokidagi tashkilot yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi mansabdor shaxsiga mazkur mansabdor shaxsning o'z xizmat mavqeidan foydalangan holda sodir etishi lozim yoki mumkin bo'lgan muayyan harakatni pora bergan shaxsning manfaatlarini ko'zlab bajarishi yoki bajarmasligi evaziga qonunga xilof ekanligini bila turib bevosita yoki vositachi orqali moddiy qimmatliklar berish yoki uni mulkiy manfaatdor etish;
- pora olish — berishda vositachilik qilish — pora olish- berishda vositachilik qilish, ya'ni pora olish yoki berish xususidagi kelishuvga erishishga qaratilgan faoliyat, shuningdek manfaatdor shaxslarning topshirig'i bilan porani bevosita berish;
- harakat — shaxsning ijtimoiy xavfli, ongli va faol xulq-atvori;

harakatsizlik


shaxsning normativ hujjatlarda bajarishi shart qilib belgilangan muayyan harakatlarni bajarmaslikda ifodalangan ijtimoiy xavfli, ongli va sust xulq-atvori.



02

B O ' L I M

2. TIBBIYOT SOHASIDA ENG KO'P UCHRAYDIGAN KORRUPSIYAVIY HUQUQBUZARLIKLAR VA JINOYATLAR!



Jinoyat kodeksiga kiritilgan qo'shimchalarga ko'ra, korrupsiyaga oid jinoyatlar quyidagilar etib belgilandi:

- Jinoyat kodeksi 167-moddasi 3-qismi «d» bandida, 168-moddasi 4-qismi «g» bandida, 192-9, 192-10-moddalarida, 192-11-moddasi 2-qismi «v» bandida, 205-moddasi 2-qismi «v» bandida, 206-moddasi 2-qismi «v» bandida, 208-moddasi 2-qismida, 209-moddasi 2-qismi «v» bandida, 210, 211, 212, 213, 214, 214-1, 214-2-moddalarida va 301-moddasi 2-qismi «b» bandida nazarda tutilgan jinoyatlar;
- Kodeksning 243-moddasida nazarda tutilgan jinoyat, agar mazkur jinoyat korrupsiyaga oid jinoyatlarni sodir etish natijasida olingan daromadlarni legallashtirish bilan bog'liq holda sodir etilgan bo'lsa.
- Shuningdek, jazodan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish o'zlashtirish yoki rastrata qilish yo'li bilan talon-toraj qilganlik, firibgarlik uchun hukm qilingan va sodir etgan jinoyati tufayli yetkazilgan zararining o'rnini to'liq qoplamagan shaxsga qo'llanilmasligi belgilandi.

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksga kiritilgan qo'shimchalarga ko'ra:

davlat xaridi predmetining boshlang'ich narxi va uning o'rtacha bozor narxi o'rtasida yo'l qo'yiladigan tafovutning eng ko'p miqdoriga nisbatan belgilangan talabni buzish, bundan talon-toraj qilish hollari mustasno,

mansabdor shaxslarga BHMning 30 baravarigacha jarima solishga sabab bo'lishi belgilandi.

“Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida”gi Qonunga kiritilgan qo'shimchalarga ko'ra, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha hududiy kengashlar tashkil etiladi.

Davlat organlari va tashkilotlarida komplaens va korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari tashkil etiladi.

“Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida”gi Qonunga kiritilgan qo'shimchalarga ko'ra, davlat organlari va tashkilotlari, hududlar va sohalar kesimida korrupsiya darajasini aniqlash va uni minimallashtirish maqsadida korrupsiyaga oid xavf-xatarlar xaritasi shakllantiriladi.

Xavf-xatarlar xaritasi quyidagilar asosida shakllantiriladi:

- korrupsiyaga oid jinoyatchilik statistikasi;
- korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha huquqni qo'llash amaliyotining tahlili;
- aholining korrupsiyaga bo'lgan munosabati;
- korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha siyosatning samaradorligiga doir ma'lumotlar;
- korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organlar hamda tashkilotlarning axboroti.
- Korrupsiyaga oid xavf-xatarlar xaritasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan yuritiladi.

- Korruptsiyaga oid huquqbuzarlik natijasida tuzilgan bitimlarni haqiqiy emas deb topish qonunda belgilangan tartibda, vakolatli davlat organining, manfaatdor shaxsning arizasiga asosan sud tomonidan amalga oshiriladi.
- O'zi mehnat faoliyatini olib borayotgan davlat organida korruptsiyaga oid jinoyat to'g'risida asosli xabar bergan shaxsga Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligini oldindan xabardor etmasdan 2 yil davomida intizomiy jazo choralarini qo'llashga yo'l qo'yilmaydi.
- Kiritilgan qo'shimchalarga ko'ra, korruptsiyaga oid jinoyatlarni sodir etishda aybdor deb topilgan shaxslar Korruptsiyaga oid jinoyatlarni sodir etishda aybdor deb topilgan shaxslarning elektron reyestriga kiritiladi.
- Ichki ishlar vazirligi korruptsiyaga oid jinoyatlarni sodir etishda aybdor deb topilgan shaxslarga nisbatan ayblov hukmi qonuniy kuchga kirgan paytdan e'tiboran 3 ish kuni ichida reyestriga shaxs haqidagi ma'lumotlarni kiritadi.
- Elektron reyestrda korruptsiyaga oid jinoyatlarni sodir etishda aybdor deb topilgan shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlar Jinoyat kodeksida belgilangan sudlanganlik muddati davomida saqlanadi.


Elektron reyestrda kiritilgan shaxslarga nisbatan quyidagi cheklovlar belgilanadi:

- davlat xizmatiga kirish va davlat mukofotlari bilan taqdirlanish;
- saylanadigan va alohida tartibda tayinlanadigan lavozimlarga nomzodining ko'rsatilishi;
- davlat organlari huzuridagi jamoatchilik kengashlari hamda idoralararo kollegial organlarning a'zosi bo'lish;
- o'zi ta'sis etgan va ustav fondidagi ulushining 50 foizidan ko'proq qismiga o'zi egalik qiladigan tadbirkorlarning davlat xaridlarida va davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitimda ishtirokchi sifatida qatnashish;
- davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo'lgan tashkilotlarda va davlat ta'lim muassasalarida rahbarlik lavozimlarida faoliyat yuritish.
- Elektron reyestr Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan Ichki ishlar vazirligi bilan hamkorlikda yuritiladi.

03

B O ' L I M

3. KORRUPSIYA ISHTIROKCHILARI KIMLAR?



Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning keng tarqalgan turlaridan biri bu soʻzsiz – **poraxoʻrlik**.

Poraxoʻrlik jinoyatlarida jinoyat jarayoni ishtirokchilari sifatida, bir tarafdin – **pora oluvchi**, ikkinchi tarafdin esa – **pora beruvchi** ishtirok etadi.

Ayrim hollarda ushbu jinoiy harakatlarda **pora olish-berishda vositachilik qiladigan shaxs** ishtirok etishi mumkinligi nazarda tutiladi.

Mana shu uch turdagi shaxslar korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning ishtirokchilari boʻlishi mumkin.

PORA OLUVCHI KIM?

Pora oluvchi:

Mansabdor shaxs

doimiy, vaqtincha yoki maxsus vakolat boʻyicha tayinlanadigan yoki saylanadigan, hokimiyat vakili vazifalarini bajaradigan yoxud davlat organlarida, fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarish organlarida, mulk shaklidan qatʼiy nazar, korxonalarda, muassasalarda, tashkilotlarda tashkiliy-boshqaruv, maʼmuriy-xoʻjalik vazifalarini amalga oshiradigan va yuridik ahamiyatga ega harakatlarni sodir etishga vakolat berilgan shaxs, xuddi shuningdek xalqaro tashkilotda yoxud chet davlatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, maʼmuriy yoki sud organida mazkur vazifalarni amalga oshiruvchi shaxs.

Hokimiyat vakili

davlatning biron-bir hokimiyat organining nomidan ish koʻrib, muayyan vazifalarni doimiy yoki vaqtincha amalga oshiruvchi va oʻz vakolatlari doirasida koʻpchilik yoxud barcha fuqaro yoki mansabdor shaxslar uchun majburiy boʻlgan harakatlarni sodir etish yoki farmoyishlar berish huquqiga ega boʻlgan shaxs.

Xizmatchi

davlat organida, tijorat, notijorat tashkilotida mehnat shartnomasi yoki fuqarolik-huquqiy shartnoma asosida mehnat faoliyatini amalga oshiruvchi, mansabdor shaxs alomatlariga ega boʻlmagan shaxs.

Pora beruvchi kim?

Mansabdor shaxsga oʻzi yoki boshqa bir shaxslarning manfaatlarini koʻzlab bajarishi yoki bajarmasligi evaziga qonunga xilof ekanligini bila turib bevosita oʻzi yoki vositachi orqali moddiy qimmatliklar beruvchi yoki mulkiy manfaatdor etuvchi har qanday jismoniy shaxs – **pora beruvchidir**.

Jismoniy shaxs

bu 16 yoshga toʻlgan, aqli raso Oʻzbekiston Respublikasi fuqarosi, chet el fuqarosi yoki fuqaroligi boʻlmagan shaxsdir.

Vositachi

pora olish yoki berish xususidagi kelishuvga erishishga qaratilgan faoliyat bilan shug'ullangan, shuningdek manfaatdor shaxslarning topshirig'i bilan porani bevosita bergan shaxs.

Pora predmeti:

- Pul;
- Qimmatbaho sovg'alar va moddiy narsalar (avtomobil, qimmatbaho soatlar, ko'chmas mulk (do'kon, uylar) kabilardir);

Moddiy qiymatga ega bo'lgan xizmatlar

(masalan, ta'mirlash, qurilish, kreditlarni qoplash, kontrakt to'lovlarini to'lab berish, va boshqalar).

**DIQQAT!!! Quyidagi korrupsion qilmishlar jinoyat hisoblanadi:**


- bepul tibbiy xizmatlar uchun bemorlardan moddiy qimmatliklar olish yoki mulkiy manfaatdor bo'lish;
- bemorlardan moddiy qimmatliklar olish yoki ulardan mulkiy manfaatdor bo'lish maqsadida tamagirlik qilish, shuningdek, sunniy ravishda tibbiy xizmatlarni taqchilligini yuzaga keltirish, ayrim dori ishlab chiqaruvchilarning manfaati hisobiga bemorlarga retsept yozish;
- keraksiz va hech qanday zaruriyatsiz tibbiy xizmatlarni qabul qildirish;
- hujjatlarga soxta yozuvlar kiritib, aslida ko'rsatilmagan tibbiy xizmatlarni bajarilgan deb ko'rsatish;
- bepul dori-darmonlarni bemorlarga sotish;
- tibbiyot muassasalarining mol-mulkini talon-taroj qilish;
- vaqtincha mehnatga layoqatsizlikni asossiz rasmiylashtirish yoki soxtalashtirish va boshqa tibbiyot hujjatlarini rasmiylashtirish;
- ma'lum bo'lgan faktlarni yashirish yoki haqiqatda bo'lmagan faktlarni tasdiqlash (odatda tan jarohatlari bo'yicha);
- Tibbiy ekspertiza o'tkazish davrida moddiy manfaat evaziga ma'lumotnomalarga noto'g'ri ma'lumot kiritish yoki soxtalashtirish.



04

B O ' L I M

4. KORRUPSIYA SHUNCHALIK XAVFLIMI?



Ba'zilar korrupsiyaga odatiy holat sifatida qaraydi, ba'zilar foydali deb o'ylaydi:

Axir nimasi yomon? Ishim tez bitdi, vaqtim ham tejaldi.

O'g'limni o'qishga kirgizdim, bekorchi bo'lmaydi endi.

Kim zarar ko'rdi bundan?


Sog'liqni saqlash sohasidagi korrupsiya fuqarolarda shifokorlar va tibbiyot xodimlariga bo'lgan ishonchni yo'qotadi, chunki har bir inson tafakkurida shifokor odamlarni hayoti qil uchida turgan paytida ularga yordam va so'ngi umid bag'ishlaydigan yuksak va sharaflı kasb egalaridir.

***Korrupsiya tufayli poklik ramzi bo'lgan oq xalatga va yuksak kasbga
insonlarda nafrat hissini uyg'otmaylik.***

05

B O ' L I M

5. KORRUPSIYAGA OID HUQUQBUZARLIKLAR UCHUN QANDAY JAZO BELGILANGAN?



O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlariga ko'ra korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar uchun quyidagi jazo turlaridan biri yoki bir nechta sodir etilgan qilmishning yengil yoki og'irligiga qarab tayinlanishi mumkin:

- ogohlantirish;
- uzr so'rash yoki rasmiy uzrnoma keltirishni talab qilish;
- davlat organlari va tashkilotlarining kollegial yig'ilishlarida tanbeh berish;
- hayfsan;
- o'rtacha oylik ish haqining o'ttiz foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda jarima;
- mehnat shartnomasini bekor qilish;
- jarima;
- muayyan huquqdan mahrum qilish;
- majburiy jamoat ishlari;
- axloq tuzatish ishlari;
- ozodlikni cheklash;
- ozodlikdan mahrum qilish;
- harbiy yoki maxsus unvondan mahrum qilish.

06

RIF4848

B O ' L I M

6. SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMI XODIMI UCHUN ESLATMA!



RIF4848

RIF48

RIF4848

Sizga pora taklif qilishmoqda, nima qilishingiz kerak?**Hurmatli sog'liqni saqlash tizimi xodimlari!**

O'zingizning martabangizni, yaxshi nomingiz va misqolda yiqqan obro'yingizni foyda uchun qurbon qilmang! Esingizda bo'lsin, poraxo'rlik - bu qonun bilan jazolanadigan jinoyatdir!

Agar sizga pora taklif qilinsa-chi?

Agar sizga pora taklif qilinsa, shu jumladan qat'iy va takroran, pora olishni rad eting va holat to'g'risida muassasa rahbariyatiga yoki huquqni muhofaza qiluvchi organlardan biriga xabar bering (iloji boricha ko'proq ma'lumotlarni eslab qoling – pora taklif qilgan shaxsning ismi, pora berish shartlari, miqdori va boshqalar).

Har bir inson mustaqil qaror qabul qiladi!!!




RIF4848

07

B O ' L I M

7. AGAR SIZ KORRUPSIYA HAQIDA MUROJAAT QILMOQCHI BO'LSANGIZ...



RIF4848

RIF4848

RIF4848

RIF4848

Korrupsiya holatlari yuzasidan murojaat qilishni lozim deb topilganda, Sizning harakatlaringiz:

1 - QADAM:

o‘z tashkilotingiz rahbariga yoki mas‘ul tarkibiy (kadrlar yoki ichki nazorat) bo‘linma xodimlariga yoki Sog‘liqni saqlash vazirligining 1203 raqamli “Ishonch telefoni”ga yoki t.me/ssvantikor_bot telegram botga murojaat qilish kerak.

MUROJAATCHINING SHAXSI SIR SAQLANISHI KAFOLATLANADI!

2 - QADAM:

Huquqni muhofaza qiluvchi organga murojaat qilish kerak.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH AGENTLIGI:

- pochta xizmati orqali yuborish (Manzil: Toshkent sh., Yakkasaroy tumani, Sh.Rustaveli ko‘chasi, 8A);

telefon raqam (71) 202-04-00 (ichki raqam 505), Elektron manzil:

- www.anticorruption.uz;

el.pochta: info@anticorruption.uz, antikor@exat.uz.



DIQQAT!!! “E-Anticor.uz” elektron platformasi orqali amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi:

- tuman, shahar, viloyat prokuraturasiga tashrif buyurib;
- 1007 qisqa raqamli Ishonch telefoniga qo‘ng‘iroq qilish;
- (71) 232-10-07 yoki ijtimoiy tarmoqlar orqali prokuratura.uz;
- pochta xizmati orqali yuborish (Manzil: Toshkent sh., Ya.G‘ulomov ko‘chasi, 66-uy).

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi:

- pochta xizmati orqali yuborish (Manzil: Toshkent sh., Yu.Rajabiy ko‘chasi 1-uy indeks 100029);
- hududiy boshqarma va bo‘limlariga tashrif buyurib, shaxsan taqdim etish;
- vazirlikning 1102 qisqa raqamli Ishonch telefoniga qo‘ng‘iroq qilish;
- to‘g‘ridan-to‘g‘ri elektron shaklda murojaat qoldirish.

♦ **O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi:**

- pochta xizmati orqali yuborish (Manzil: Toshkent sh. Sayilgoh ko'chasi 5uy, indeks 100047);
- hududiy boshqarma va bo'limlariga tashrif buyurib, shaxsan taqdim etish;
- vazirlikning 1008 qisqa raqamli Ishonch telefoniga qo'ng'iroq qilish;
- to'g'ridan-to'g'ri elektron shaklda murojaat qoldirish.

♦ **Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti:**

- pochta xizmati orqali yuborish (Manzil: Toshkent sh., Ya.G'ulomov ko'chasi, 39A-uy);
- tashrif buyurib, shaxsan taqdim etish; 71-233-1007 raqamli Ishonch telefoniga qo'ng'iroq qilish;
- to'g'ridan-to'g'ri elektron shaklda murojaat qoldirish.



DIQQAT!!! Ushbu tashkilotlarga og'zaki, yozma yoki elektron shaklda murojaat qilish mumkin.

Murojaatlarda va jinoyat haqida xabar berishda quyidagilarni ko'rsatib o'tishingiz lozim:

- 1) qachon, qayerda va kim tomonidan korrupsiyaviy xatti-harakatlarga yo'l qo'yilgan (kim orqali mansabdor shaxs pora sifatida pul talab qilgan);
- 2) mansabdor shaxsning korrupsiyaviy xatti-harakatlari (pora talab qilinganlik) qaysi harakatlarida ifoda etilgan;
- 3) korrupsiyaviy xatti-harakatlar (pora sifatida) nima, qachon va qaysi ishni hal qilganlik uchun sodir etilgan (berilgan);

Murojaatlar quyida asosiy tushunchalari berilgan **og'zaki, yozma yoxud elektron** shakldagi **ariza, taklif, shikoyat va elektron murojaat** shaklida, shuningdek, **ommaviy qabulda** berilishi mumkin:

- ariza — huquqlarni, erkinliklarni va qonuniy manfaatlarni amalga oshirishda yordam ko'rsatish to'g'risidagi iltimos bayon etilgan murojaat;
- taklif — davlat va jamiyat faoliyatini takomillashtirishga doir tavsiyalarni o'z ichiga olgan murojaat;
- shikoyat — buzilgan huquqlarni, erkinliklarni tiklash va qonuniy manfaatlarni himoya qilish to'g'risidagi talab bayon etilgan murojaat;
- elektron murojaat — belgilangan tartibda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositasida berilgan, shu jumladan davlat organining, tashkilotning rasmiy veb-saytiga joylashtirilgan murojaat, real vaqt rejimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda berilgan og'zaki murojaatlar bundan mustasno;

ommaviy qabul

davlat organi rahbarining yoki bu borada vakolat berilgan mansabdor shaxsining jismoniy shaxslar va yuridik shaxslarning vakillari bilan ommaviy uchrashuvlarida murojaatlarni qabul qilishga doir harakati.

Yozma shaklda murojaat qilganda:

- jismoniy shaxsning familiyasi (ismi, otasining ismi), uning yashash joyi to'g'risidagi ma'lumotlar, ko'rsatilgan bo'lishi kerak;
- yuridik shaxsning murojaatida yuridik shaxsning to'liq nomi, uning joylashgan yeri (pochta manzili) to'g'risidagi ma'lumotlar ko'rsatilgan bo'lishi kerak.
- Jismoniy va yuridik shaxsning murojaatida davlat organining, tashkilotning aniq nomi, murojaat yuborilayotgan mansabdor shaxsning lavozimi va (yoki) familiyasi (ismi, otasining ismi) ko'rsatilgan, shuningdek murojaatning mohiyati bayon etilgan bo'lishi kerak.
- Murojaatlarda murojaat etuvchilarning elektron pochta manzili, aloqa telefonlari va fakslari raqamlari ko'rsatilishi mumkin.

Yozma murojaat murojaat etuvchi jismoniy shaxsning imzosi yoki murojaat etuvchi yuridik shaxs vakolatli shaxsining imzosi bilan tasdiqlangan bo'lishi lozim. Jismoniy shaxsning yozma murojaatini murojaat etuvchining imzosi bilan tasdiqlash imkoni bo'lmagan taqdirda, bu murojaat uni yozib bergan shaxsning imzosi bilan tasdiqlanib, uning familiyasi (ismi, otasining ismi) ham qo'shimcha ravishda yozib qo'yilishi kerak.

Og'zaki shaklda murojaat

qilganda, korruptsiya holati bo'yicha bayonnoma tuziladi, unga arizachi va bayonnoma tuzuvchi imzo qo'yadi. hujjatda arizachi haqida ma'lumot, shaxsni tasdiqlovchi hujjatlar ko'rsatib o'tiladi.

3 - QADAM: Arizangiz haqiqatdan ham qabul qilinganligiga ishonch hosil qiling.

Ariza qabul qilingandan so'ng arizachiga murojaat qabul qilinganligi haqida hujjat beriladi. Bu arizangiz nusxasi ham bo'lishi mumkin. Ariza qabul qilinganligi to'g'risidagi hujjatda quyidagilar ko'rsatilishi kerak:

- 1) arizani qabul qilgan mas'ul xodimi haqida ma'lumot;
- 2) uning imzosi;
- 3) arizaning ro'yxatdan o'tkazilganlik raqami;
- 4) qabul qilish sanasi;

5 qabul qilgan organ nomi, manzili va telefon raqami.

4 - QADAM:

Arizangiz ko'rib chiqilishini nazorat qilish. Siz bergan arizangizning natijasi va ko'rilgan choralar haqida ma'lumot olishga haqlisiz.

5 - QADAM:

shikoyat qilish.

Agarda, korruptsiya holatlari yuzasidan bergan arizangiz qabul qilinmasa, Siz yuqori turuvchi organga yoki huquqni muhofaza qiluvchi organlarga shikoyat bilan murojaat qilishingiz mumkin. Masalan, tuman tibbiyot birlashmasi korruptsiya holatlari bo'yicha arizangizni qabul qilmadi, viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasi yoki Sog'liqni saqlash vazirligiga murojaat qilishingiz mumkin.

**DIQQAT!!!**

Zamon rivojlangani sari kishilar o'rtasida muloqot vositalarining turlari ham ortib bormoqda. Internet atalmish jahon axborot tarmog'ida **tibbiyot sohasiga oid** suzib yurgan son-sanoqsiz ma'lumotlarning biri to'g'ri, biri qing'ir maqsadni ko'zlagan bo'lsa, yana biri **shifokorning** sha'ni va qadr-qimmatini kamsitishga, badnom qilishga **"xizmat qiladi"**.

So'nggi vaqtlarda ijtimoiy tarmoqlar orqali **shifokorlarga nisbatan boshqa shaxs yoki guruhlar tomonidan tuhmat qilish holatlari tez-tez uchrab turibdi.**

Vaholanki, **barcha darajadagi xodimlar** Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14-oktyabrdagi 595-sonli qarori bilan tasdiqlangan davlat fuqarolik xizmatchilari odob-axloqining namunaviy qoidalarining 9-bandi o'n sakkizinchi xatboshisiga asosan **ijtimoiy tarmoqlarda davlat organlari va tashkilotlari hamda mansabdor shaxslar faoliyatini muhokama qilmaslik, axloqqa zid iboralarni ishlatmaslik, mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarga nisbatan odamlarda ishonchsizlik kayfiyatini yuzaga keltirishi mumkin bo'lgan materiallarni joylashtirmaslikka majbur.**

Xo'sh, tuhmat o'zi nima, unga qonunlarimizda qanday jazo belgilangan?

Tuhmat qilish qanchalik xavfli? U haqida bilish zarur bo'lgan qoidalar.

Odamlar orasida boshqalar haqida yolg'on ma'lumotlar tarqatib yuradiganlari ham uchrab turadi. Ularning ma'lumotlariga ishonib siz ham boshqa bir shaxs haqidagi axborotni tarqatib yurmasligingiz lozim. Chunki ushbu harakatingiz uchun huquqbuzar yoki jinoyatchi bo'lib qolishingiz mumkin.

Tuhmat o'zi nima?

Tuhmat bu bila turib yolgʻon, boshqa bir shaxsni sharmanda qiluvchi uydirmalarni tarqatish hisoblanadi. Demak, birov haqida bilmasdan turib oʻylab topilgan boʻlishi mumkin boʻlgan uydirmalarni tarqatmaslik lozim.

■ Gapingiz tuhmat boʻlib qolmasligi uchun nima qilish kerak?

Birinchi navbatda, boshqa bir shaxslar haqida gapirmaganingiz maqsadga muvofiq. Gapirgan taqdirda ham faktga tayangan holda gapirish lozim.

Masalan, siz bilan birga ishlaydigan rahbaringiz boshqa xodimni haqorat qilganligi haqida xabar eshitdingiz, lekin buni tasdiqlovchi dalilingiz mavjud emas, bu haqida qolgan barcha xodimlarga xabar berib qoʻydingiz va bu rahbarga ham yetib bordi.

Ushbu holatda rahbar sizni tuhmat qilganlikda ayblashi ham mumkin. Chunki siz bu yerda hech qanday dalilsiz uydirma tarqatgan hisoblanib qolishingiz mumkin. Shu boisdan, iloji boricha boshqalar haqida asossiz maʼlumotlar tarqatmaslik lozim.

Internet orqali tuhmat qilish ogʻirroq boʻladi.

Internet tarmoqlarida ayrim fuqarolar dalil bilan yoki dalilsiz baʼzi rahbarlarning faoliyatini tanqid qilish holatlari kuzatiladi. Ushbu tanqidlar oʻz tasdigʻini topsa, mayli. Lekin bunday boʻlmasa, fuqaro ushbu tanqidlar uchun jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin.

Chunki nashr qilish yoki boshqacha usulda koʻpaytirilgan tarzda, shu jumladan ommaviy axborot vositalarida, telekommunikatsiya tarmoqlarida yoki Internet jahon axborot tarmogʻida joylashtirish orqali tuhmat qilish jinoyat hisoblanadi.

Shu boisdan, birov sizga adolatsizlik qilgan boʻlsa yoki u bilan adovatingiz boʻlsa, boshqalarning aytgan gaplariga qarab u haqida (u kim boʻlishidan qati nazar) internetda maʼlumot tarqatishga shoshilmang.

Tuhmat uchun qanday javobgarlik bor?

Tuhmat, yaʼni bila turib yolgʻon, boshqa bir shaxsni sharmanda qiluvchi uydirmalarni tarqatish

BHMning 20 baravaridan 60 baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab boʻladi. Demak, tuhmat qilgan shaxs 20 mln 400 ming soʻmgacha miqdorda jarima toʻlashi mumkin.

Albatta, agar bu tuhmat maʼmuriy huquqbuzarlik boʻlgan taqdirda jarima bilan qutulish mumkin. Ammo jinoyat boʻlsa, ogʻirroq oqibatlarga olib keladi.

Fuqaro **maʼmuriy javobgarlikka tortilgandan soʻng yana bir yil ichida yana kimgadir tuhmat qilsa**, u jinoiy javobgarlikka tortiladi. Yaʼni, BHMning 200 baravarigacha miqdorda jarima yoki 300 soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud 2 yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanishi mumkin.

Nashr qilish yoki boshqacha usulda koʻpaytirilgan tarzda, shu jumladan ommaviy axborot vositalarida, telekommunikatsiya tarmoqlarida yoki Internet jahon axborot tarmogʻida joylashtirish orqali tuhmat qilinsa, BHMning 200 baravari jarimadan tortib 1 yilgacha ozodlikni cheklash jazolanishi mumkin.

Xavfli retsivist tomonidan, g'arazgo'ylik yoki boshqa past niyatlarda, og'ir yoki o'ta og'ir jinoyat sodir etishda ayblab tuhmat qilinsa, shuningdek, tuhmat og'ir oqibatlar kelib chiqishiga sabab bo'lsa, BHMning 300 baravari jarimadan tortib 3 yilgacha ozodlikni cheklash jazo bilan jazolanishi mumkin.

Hurmatli hamkasblar, sizga kelgan har qanday yozma va og'zaki axborotlarni tarqatishdan avval uning asoslarini tekshiring. O'zga haqida uydirma axborotlarni tarqatmang, aks holda bu sizga «qimmatga tushishi» mumkin.



DIQQAT!!! Quyidagi mavzularda suhbat olib borish

PORA BERISHGA TAKLIF DEB TUSHUNILISHI MUMKIN:

- Mansabdor shaxs yoki xizmatchining oylik maoshi kamligi, ayrim ehtiyojlarini qondirishi uchun pul mablag'lari yetmayotganligi;
- Biror-bir mol-mulkni sotib olish yoki ma'lum bir xizmatdan foydalanish, biror manzilga turistik sayohatga borish niyati borligi;
- Mansabdor shaxs yoki xizmatchining qarindoshlari ishsiz yurganligi, ular pulga muhtojligi;
- Farzandlarining kelajagi uchun xususan, ta'lim muassasasiga joylashtirish zarurati va hokazo.

08

B O ' L I M

8. KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH BO'YICHA ICHKI IDORAVIY MEXANIZMLAR



O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirining 2025 yil 8 iyuldagi 203-son buyrug'i bilan tasdiqlangan korrupsiyaga qarshi kurashishga oid ichki lokal hujjatlar:

- – Sog'liqni saqlash vazirligining korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha siyosati;
- – Sog'liqni saqlash vazirligi faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash uslubi;
- – Sog'liqni saqlash vazirligida manfaatlar to'qnashuvini boshqarish to'g'risidagi nizom;
- – Sog'liqni saqlash vazirligi aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xatti-harakatlar to'g'risida kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va ko'rib chiqish reglamenti;
- – Sog'liqni saqlash vazirligi xodimlarini “Korrupsiyaga qarshi kurashish virtual akademiyasi” elektron platformasida o'qitishni tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizom;
- – Sog'liqni saqlash vazirligida kontragentlarni tekshirishga oid yo'riqnoma;
- – Sog'liqni saqlash vazirligiga ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo'yicha yo'riqnoma;
- – Sog'liqni saqlash vazirligida Korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish uslubi;
- – Sog'liqni saqlash vazirligida korrupsiyaga qarshi kurash tizimining holati to'g'risidagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish bo'yicha reglament;
- – Sog'liqni saqlash vazirligi xodimlarining korrupsiyaviy xatti-harakatlari va odob-axloq qoidalarini buzish holatlari ustidan xizmat tekshiruvlari o'tkazish bo'yicha reglament;
- – Sog'liqni saqlash vazirligida davlat xaridlari ustidan nazoratni tashkil etish bo'yicha uslubiy qo'llanma;
- – Sog'liqni saqlash vazirligi xodimlari tomonidan xizmat safarlari, xalqaro va boshqa rasmiy tadbirlar munosabati bilan olinishi mumkin bo'lgan sovg'a qiymati, shuningdek, uni tasarruf etish tartibi to'g'risidagi nizom;
- – Sog'liqni saqlash vazirligida Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan xodimlarni rag'batlantirish tartibi to'g'risidagi nizom;
- – Sog'liqni saqlash vazirligida monopoliyaga qarshi komplaens tizimini joriy etish va uning ishlash tartibi to'g'risida nizom.

ALOQA KANALLARI HAQIDAGI MA'LUMOTLAR

T/r	Hudud	Aloqa kanali turi				
		Ishonch telefon raqami	Rasmiy saytdagi sahifa	Elektron pochta manzili	Telegram bot	Facebook va boshqa ijtimoiy tarmoqdagi sahifa

■ Ушбу жадвалга вазирлик, ҳудудий бошқармалар, тизим ташкилотлари ва муассасаларининг

алоқа каналлари ҳақидаги маълумотлари киритилади.

MANFAATLAR TO'QNASHUVI HOLATLARI

Vazirlik tizimida manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'yish yoki unga olib kelishi mumkin bo'lgan quyidagi holatlar mavjud. Xususan:

- yaqin qarindoshlarning bevosita bo'ysunuvda yoki nazorat yo'nalishidagi ishlayotganlik holati;
- xodimlarning tadbirkorlik faoliyatida ishtirok etish holati;
- yaqin qarindoshi ishlayotgan obyektni tekshirishda ishtirok etish holati;
- ishdan bo'shagan xodimning o'z ish joyida bevosita nazoratida bo'lgan tashkilotlarga ishga kirish holati;
- nazoratida bo'lgan tadbirkorlik faoliyati subyektining aksiyalariga yoki ustav fondidagi ulushlariga yoxud ularning boshqaruv organi a'zosi bo'lgan holatlar;
- davlat xaridlarini amalga oshirish va davlat mulkini xususiylashtirish jarayonida manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'yganlik holatlari.

“Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida”gi Qonunning mazmun-mohiyati va ahamiyati

I. Qonunning maqsadi

Manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

II. Qonunning mazmun-mohiyati

Qonun davlat organlariga va mahalliy davlat hokimiyati organlariga, davlat muassasalariga, davlat unitar korxonalariga, davlat maqsadli jamg'armalariga, shuningdek ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi **50 foiz miqdorda va undan ortiq bo'lgan** aksiyadorlik jamiyatlariga nisbatan tatbiq etiladi.

Qonunda davlat organining yoki boshqa tashkilotning xodimi, manfaatlar to'qnashuvi, manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish bo'yicha **maxsus bo'linma, shaxsiy manfaatdorlik, yaqin qarindoshlar** kabi asosiy tushunchalar kiritildi.

Quyidagi shaxslar davlat organining yoki boshqa tashkilotning xodimiga **aloqador shaxslar** deb e'tirof etiladi:

- - xodimning yaqin qarindoshlari;
- - xodim va (yoki) uning yaqin qarindoshlari qaysi yuridik shaxsning ustav fondi (ustav kapitali) aksiyalariga yoki ulushlariga egalik qilsa, o'sha yuridik shaxs;
- - xodim yoxud uning yaqin qarindoshlari qaysi yuridik shaxsda boshqaruv organining rahbari yoki a'zosi bo'lsa, o'sha yuridik shaxs.

Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi

manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solish sohasida maxsus vakolatli davlat organi etib belgilandi.

Davlat organi yoki boshqa tashkilot xodimi tomonidan qonun talablariga rioya etilishi ustidan nazorat ushbu davlat organida yoki boshqa tashkilotda tuzilgan **odob-axloq komissiyasi tomonidan** amalga oshiriladi.

Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi axborotni xodimlar tomonidan oshkor etish 2 shaklda amalga oshiriladi:

- - mavjud manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi xabarnoma berish orqali;
- - ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi deklaratsiyani to'ldirish orqali.

Ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi deklaratsiyada quyidagi ma'lumotlar ko'rsatilishi kerak:

- xodim lavozimi hamda uning familiyasi, ismi, otasining ismi, shuningdek jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqami;
- xodim yaqin qarindoshlarining familiyasi, ismi va otasining ismi, ularning jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqami (mavjud bo'lgan taqdirda), shuningdek ish joyi va lavozimi;
- xodim yoki uning yaqin qarindoshlari aksiyador bo'lgan aksiyadorlik jamiyatining rasmiy nomi va uning soliq to'lovchining identifikatsiya raqami;
- xodimning yaqin qarindoshi muassis (ishtirokchi), boshqaruv organi a'zosi bo'lgan yuridik shaxsning rasmiy nomi, shuningdek uning soliq to'lovchining identifikatsiya raqami.
- Qonunga muvofiq, manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish va aniqlashda ishtirok etadigan xodimlarga ishonib topshirilgan yoxud ularga kasbiy, xizmat yoki mehnat majburiyatlarini bajarishi munosabati bilan ma'lum bo'lib qolgan shaxslarning shaxsga doir ma'lumotlarini oshkor etishga yo'l qo'yilmaydi.
- Davlat organlarining yoki boshqa tashkilotlarning odob-axloq komissiyasi mavjud yoki ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvlari to'g'risida har yarim yilda xulosa qabul qiladi hamda ularni tartibga solish bo'yicha ko'rilgan choralarning yetarililigini (to'g'riligini) ko'rib chiqadi.
- Davlat organlarining yoki boshqa tashkilotlarning odob-axloq komissiyasi aniqlangan manfaatlar to'qnashuvi hollarini maxsus bo'linma bilan birgalikda tahlil qiladi va davlat organining yoki boshqa tashkilotning xodimlari o'rtasida tushuntirish ishlarini olib boradi.
- Manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'yilgan holda qabul qilingan qarorlar yoki tuzilgan bitimlar sud tartibida haqiqiy emas deb topiladi.

Davlat organining yoki boshqa tashkilotning xodimi quyidagi hollarda mavjud manfaatlar to'qnashuvi o'ziga ma'lum bo'lib qolgan paytdan e'tiboran **1 ish kuni ichida** mavjud manfaatlar to'qnashuvi haqidagi belgilangan shakldagi xabarnomani to'ldirishi va o'zining bevosita rahbariga yoki maxsus bo'linmaga taqdim etishi shart, agar:

- yaqin qarindoshlari bevosita xodimning bo'ysunuvidagi ishga qabul qilingan bo'lsa (davlat fuqarolik xizmati lavozimlarining siyosiy guruhiga kiruvchi lavozimga ishga qabul qilingan hollar bundan mustasno) yoki xodimning ishiga fuqarolik-huquqiy shartnoma asosida o'ziga aloqador shaxslar jalb etilgan bo'lsa;
- u o'ziga aloqador shaxslarga taalluqli masalalar bo'yicha qarorlar qabul qilishda ishtirok etayotgan bo'lsa;
- yaqin qarindoshi tekshiruv o'tkazilayotgan obyektida (yuridik shaxsda) tekshiruv yo'nalishi bo'yicha mas'ul mansabdor shaxs sifatida ishlayotgan bo'lsa yoki mazkur tekshiruv obyekti (yuridik shaxs) unga aloqador shaxs bo'lsa;
- boshqa har qanday mavjud manfaatlar to'qnashuvi o'ziga ma'lum bo'lib qolsa.
- Davlat organining yoki boshqa tashkilotning rahbar xodimi hamda maxsus bo'linmaning rahbari manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish uchun mas'ul hisoblanadi.

- Davlat organlari yoki boshqa tashkilotlar tarkibiy bo'linmasining rahbari mavjud manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish bo'yicha o'z vakolatlari doirasida ko'rilgan choralar to'g'risida maxsus bo'linmaga 1 ish kuni ichida axborot taqdim etishi shart.
- Maxsus bo'linma ko'rilgan choralarning yetarliligi (to'g'riligi) to'g'risidagi masalani ko'rib chiqish uchun axborotni 3 ish kuni ichida odob-axloq komissiyasiga taqdim etadi.

Deklaratsiya **har yili 15-fevralgacha** umumlashtiriladi va tahlil qilinadi. Qonunga muvofiq, davlat organining yoki boshqa tashkilotning xodimi shaxsga doir ma'lumotlari o'zgargan taqdirda, ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi deklaratsiyani to'ldirishi va **har yili 15-yanvardan kechiktirmay** maxsus bo'linmaga taqdim etishi kerak.

Davlat organiga yoki boshqa tashkilotga ishga qabul qilinayotgan nomzod, shuningdek boshqa ishga o'tkazilgan xodim ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi belgilangan shakldagi deklaratsiyani to'ldirishi va taqdim etishi kerak.

Maxsus bo'linma:

- ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi har yilgi deklaratsiyani har yili 15-fevralgacha umumlashtiradi va tahlil qiladi;
- ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish bo'yicha choralarning yetarliligini (to'g'riligini) ta'minlash uchun har yili 1-martga qadar odob-axloq komissiyasiga taklif kiritadi;
- odob-axloq komissiyasi tomonidan qabul qilingan xulosaga asosan ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish yuzasidan choralar ko'rish to'g'risida davlat organi yoki boshqa tashkilot xodimining bevosita rahbariga yoxud davlat organining yoki boshqa tashkilotning yuqori turuvchi rahbariga taklif kiritadi.

Davlat organining yoki boshqa tashkilotning xodimligiga nomzod ishga qabul qilinayotganda yoxud davlat organi yoki boshqa tashkilot xodimi boshqa ishga o'tkazilayotganda, ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi deklaratsiyani taqdim etganidan keyin maxsus bo'linma yuqorida nazarda tutilgan ishlarni **5 kunlik muddatda** amalga oshiradi.

Davlat organlari yoki boshqa tashkilotlarda **Manfaatlar to'qnashuvini hisobga olish reyestri** yuritiladi.

Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida xabar bermaslik

BHMning 3 baravaridan 5 baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Agar ushbu huquqbuzarlik **1 yil davomida** takroran sodir etilsa, BHMning **5 baravaridan 10 baravarigacha** miqdorda jarima qo'llaniladi.

Mansabdor shaxslar tomonidan mavjud yoki ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish yuzasidan choralar ko'rmaganlik BHMning **5 baravaridan 10 baravarigacha** miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Agar ushbu huquqbuzarlik **1 yil davomida** takroran sodir etilsa, BHMning **10 baravaridan 15 baravarigacha** miqdorda jarima qo'llanilishiga sabab bo'ladi.

Yuqoridagi huquqbuzarliklar **davlat xaridlari sohasida** sodir etilsa, mansabdor shaxslarga BHMning **20 baravaridan 30 baravarigacha** miqdorda jarima qo'llaniladi.

Xabarlaringiz bor, **Qonun bilan belgilangan talablarni joriy etishda** xodimlarning huquq va manfaatlariga so'zsiz rioya etilishini ta'minlash, shuningdek, manfaatlar to'qnashuvining oldini olishga oid huquqiy tartibotlarning mazmun-mohiyatini xodimlar va keng jamoatchilikka tushuntirish orqali mazkur Qonunni amalga kiritishga **har tomonlama va puxta tayyorgarlik ko'rish maqsadida**, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-iyundagi PQ-210-sonli qarori qabul qilindi.

Qaror bilan "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi Qonun ijrosini tashkil etish ishlarini muvofiqlashtirish bo'yicha **Respublika idoralararo komissiyasi tarkibi tasdiqlanib**, vazifalari belgilab berildi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi hamda Adliya vazirligi Respublika idoralararo komissiyasining **ishchi organi hisoblanadi**.

Eng asosiysi, Qonunda belgilangan talablar va mexanizmlarning amaliyotda ishlashi bilan bog'liq masalalar tashkilotlarda tegishli **ishchi guruhlarini tuzgan holda o'rganilishi lozim** bo'ladi.

Bunda quyidagilarga alohida e'tibor qaratilishi zarur:

- manfaatlar to'qnashuviga olib kelishi mumkin bo'lgan holatlarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish choralari ko'rish;
- xodimlar tomonidan ularning faoliyatida manfaatlar to'qnashuvining oldini olish bo'yicha cheklavlarga rioya etilishini o'rganish, jumladan o'rindoshlik asosida ishlash, tadbirkorlik faoliyatida ishtirok etish kabi holatlarni aniqlash;
- korrupsiyaga qarshi bo'linmalar faoliyati yo'lga qo'yilganligini hamda ularning malakali kadrlar bilan to'ldirilganligini o'rganish;
- korrupsiyaga qarshi kurashish ishlari samaradorligini baholash uchun joriy etilgan "E-anticor.uz" platformasidagi manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq ma'lumotlarni tahlil qilish;
- axborot tizimlari, savdo platformalari va boshqa dasturiy ta'minotlarni Qonun talablariga muvofiqligini o'rganish, ularni takomillashtirish choralari ko'rish;
- har chorakda Respublika idoralararo komissiyasining ishchi organlari tomonidan davlat organlari va tashkilotlari kesimida manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'yilgan holatlar tahlil qilinishini, bunday holatlar ko'paygan davlat organlari va tashkilotlariga kechiktirib bo'lmaydigan choralarni belgilash uchun tegishli taqdimnomalar kiritilishini;
- har yarim yilda manfaatlar to'qnashuvi holatlarini aniqlash va ularni bartaraf etish, shuningdek, bunday holatlarning oldini olish bo'yicha ko'rilayotgan choralar Respublika idoralararo komissiyasi yig'ilishlarida tegishli davlat organlari va tashkilotlarining birinchi rahbarlari ishtirokida tanqidiy muhokama qilib borilishini ta'minlaydi.

Shunga ko'ra, barchamiz mazkur **Qonun va qaror ijrosini samarali tashkil etishga qaratilgan** zarur chora-tadbirlarni o'z vaqtida amalga oshirishimiz lozim. Aks holda manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi qonunchilikni buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda **javobgar bo'ladi**.

Manfaatlar to'qnashuvining oldini olish maqsadida xodimlarga belgilangan cheklavlarni. Masalan:

- o'zi ishlayotgan davlat tashkiloti nazorat qiladigan tijorat tashkilotlarida ulushga o'zi yoki yaqin qarindoshlari egalik qilishi;
- tijorat tashkilotlarining ta'sischisi (aksiyadori, ishtirokchisi) bo'lish, bundan aksiyadorlik jamiyatlarining ommaviy muomalada bo'lgan 10 foizigacha aksiyalariga egalik qilish mustasno;
- o'zi ishlayotgan davlat tashkilotida o'zining, yaqin qarindoshlari yoki unga aloqador shaxslarga taalluqli ishlarni ko'rib chiqishda vakil sifatida ishtirok etish;
- o'zi ishlayotgan davlat tashkilotining mulkini sotib olishda, ijaraga olishda ishtirok etishi yoxud ushbu savdolarda yaqin qarindoshlarining ishtirok etishi (bundan elektron auksion mustasno) taqiqlanadi.

Manfaatlar to'qnashuvining oldini olish, aniqlash va tartibga solish bo'yicha vakolatli tuzilmalar.

Jumladan:

- Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi;
- Sog'liqni saqlash vazirligining Korruptsiyaga qarshi ichki nazorat bo'limi va uning hududiy hamda tizim tashkilotlaridagi bo'linmalari;
- Sog'liqni saqlash vazirligining Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'limi va uning hududiy hamda tizim tashkilotlaridagi bo'linmalari;
- odob-axloq komissiyalari.

Manfaatlar to'qnashuviga oid talablarni buzganlik uchun quyidagi huquqiy oqibatlar mavjud:

- manfaatlar to'qnashuvining oldini olish bo'yicha cheklovlarga amal qilmagan xodimlariga nisbatan intizomiy javobgarlik;
- manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ygan holda qabul qilingan qarorlar va tuzilgan bitimlar sud tartibida haqiqiy emas deb topilishi va aybdor xodimdan yetkazilgan zararni undirish;
- xodimlarining manfaatlar to'qnashuvi haqida xabar bermaganligi va uni tartibga solinmaganlik uchun ma'muriy jarimaga tortiladi.

MANFAATLAR TO'QNASHUVI HOLATLARI

Vazirlik tizimida manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'yish yoki unga olib kelishi mumkin bo'lgan quyidagi holatlar mavjud. Xususan:

- yaqin qarindoshlarning bevosita bo'ysunuvda yoki nazorat yo'nalishidagi ishlayotganlik holati;
- xodimlarning tadbirkorlik faoliyatida ishtirok etish holati;
- yaqin qarindoshi ishlayotgan obyektni tekshirishda ishtirok etish holati;
- ishdan bo'shagan xodimning o'z ish joyida bevosita nazoratida bo'lgan tashkilotlarga ishga kirish holati;
- nazoratida bo'lgan tadbirkorlik faoliyati subyektining aksiyalariga yoki ustav fondidagi ulushlariga yoxud ularning boshqaruv organi a'zosi bo'lgan holatlar;
- davlat xaridlarini amalga oshirish va davlat mulkini xususiylashtirish jarayonida manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'yganlik holatlari.

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISHGA OID MILLIY QONUNCHILIK HUJJATLARINING RO'YXATI

- 1 O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (Yangi tahrir, 30.04.2023-yil).
- 2 "Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korruptsiyaga qarshi Konvensiyasiga (Nyu-York, 2003-yil 31-oktyabr) O'zbekiston Respublikasining qo'shilishi to'g'risida"gi Qonuni (07.07.2008-yildagi O'RQ-158-son).
- 3 O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuni (03.01.2017-yil, O'RQ-419-son).
- 4 O'zbekiston Respublikasining "Normativ-huquqiy hujjatlarning va ular loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasi to'g'risida"gi Qonuni (08.08.2023-yil, O'RQ-860-son).
- 5 O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonuni (22.04.2021-yil, O'RQ-684-son).
- 6 O'zbekiston Respublikasining "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi Qonuni (08.08.2022-yil, O'RQ-788-son).
- 7 O'zbekiston Respublikasining "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonuni (08.01.2018-yil, O'RQ-457-son).
- 8 O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi (22.09.1994-yil).
- 9 O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi (22.09.1994-yil).
- 10 O'zbekiston Respublikasining "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi Qonuni (05.06.2024-yil O'RQ-931-son).

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI

FARMONLARI VA QARORLARI

- 1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 27.05.2019-yildagi "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5729-son farmoni.
- 2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 29.06.2020-yildagi "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6013-son farmoni.
- 3 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 29.06.2020-yildagi "O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-4761-son qarori.
- 4 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 16.06.2021-yildagi "Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiqqligini ta'minlash, shuningdek, jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6247-son farmoni.
- 5 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 06.07.2021 yildagi "Korrupsiyaga qarshi murossasiz munosabatda bo'lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-6257-son Farmoni.
- 6 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 06.07.2021-yildagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5177-son qarori.
- 7 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 22.10.2021-yildagi "Normativ-huquqiy hujjatlar va ularning loyihalarini korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5263-son qarori.
- 8 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 07.12.2021-yildagi "O'zbekiston Respublikasi korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-34-son qarori.
- 9 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 12.01.2022-yildagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-81-son qarori.

- 10 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022-yildagi "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son farmoni (3, 10, 83, 84-maqсадlarida manfaatlar to'qnashuvi va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha vazifalar belgilangan).
- 11 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.05.2022-yildagi "Davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish mexanizmlarini takomillashtirish va ushbu sohada jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-240-son qarori.
- 12 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 14.06.2022-yildagi "Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqlik darajasini oshirish va baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-154-son farmoni.
- 13 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 21.12.2022-yildagi "Yangi O'zbekiston ma'muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-269-son farmoni.
- 14 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 25.01.2023-yildagi "Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo'lga qo'yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-14-son farmoni.
- 15 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 27.11.2023-yildagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish hamda davlat organlari va tashkilotlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati tizimi samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-200-son farmoni.
- 16 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.06.2024-yildagi "O'zbekiston respublikasining "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi Qonuni ijrosini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-210-son qarori.
- 17 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 21.06.2024-yildagi "Aholi va davlat xizmatchilarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi bilimlarini uzluksiz oshirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-228-son qarori.
- 18 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 21.04.2025 yildagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini samarali tashkil etishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-71-son Farmoni.
- 19 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 21.04.2025 yildagi "Davlat organlari va tashkilotlarining korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'linmalari mustaqilligini ta'minlash hamda faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-147-son qarori.

◆ O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY MAJLISI SENATINING QARORLARI

- 1 O'zbekiston Respublikasi Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi direktorining O'zbekiston Respublikasida korruptsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi milliy ma'ruza haqidagi axboroti to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining qarori, (04.08.2022-yildagi SQ-592-IV-son).

◆ O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

VAZIRLAR MAHKAMASINING QARORLARI

- 1 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 31.12.2020-yildagi "Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korruptsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan shaxslarni rag'batlantirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 829-son qarori.
- 2 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 14.10.2022-yildagi "Davlat fuqarolik xizmatchilari tomonidan odob-axloq qoidalariga rioya etilishini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 595-son qarori.
- 3 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 26.03.2022-yildagi "2022 yilda normativ-huquqiy hujjatlarni korruptsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 140-son qarori.

IDORAVIY NORMATIV-HUQUQIY HUJJATLAR

- 1 "O'zstandart" agentligi (hozirda Texnik jihatdan tartibga solish agentligi) ning 2019-yil 26-iyuldagi 05-1052-sonli qaroriga muvofiq, xalqaro talablarga mos O'zDSt ISO 37001:2019 (ISO 37001:2016, IDT) "Pora olish-berish bilan kurashish menejmenti tizimlari. Foydalanish bo'yicha talablar va qo'llanma" standarti.
- 2 "Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari faoliyati to'g'risida"gi namunaviy nizom (08.09.2021-yilda ro'yxatga olingan, ro'yxat raqami 3319).

- 3 “Qonunchilik hujjatlari va ularning loyihalarini korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o‘tkazish bo‘yicha ekspertlar reyestrini shakllantirish va yuritish tartibi to‘g‘risida”gi nizom (02.02.2022 yil ro‘yxatdan o‘tkazilgan, ro‘yxat raqami 3347)
- 4 “Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholashni mustaqil amalga oshiruvchi ekspertlar guruhi tarkibini shakllantirish va uning faoliyatini tashkil etish tartibi” (13.05.2022 yil ro‘yxatdan o‘tkazilgan, ro‘yxat raqami 3368).
- 5 Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, shu jumladan ularning hududiy bo‘linmalari, davlat unitar korxonalari va muassasalari, davlat ulushi 50 foizdan yuqori tashkilotlar faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash uslubiyotini tasdiqlash to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining qarori (31.08.2022-yilda ro‘yxatdan o‘tgan, ro‘yxat raqami 3383).
- 6 Davlat fuqarolik xizmatchisi tomonidan xizmat safarlari, xalqaro va boshqa rasmiy tadbirlar munosabati bilan olinishi mumkin bo‘lgan sovg‘a qiymati, shuningdek uni tasarruf etish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqidagi O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi direktorining 2023-yil 11-martdagi 54-son buyrug‘i (13.03.2023-yilda ro‘yxatdan o‘tgan, ro‘yxat raqami 3425).
- 6 Normativ-huquqiy hujjatlar va ular loyihalarida korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omillarni aniqlash uslubiyati (31.10.2023 yilda ro‘yxatdan o‘tkazilgan, ro‘yxat raqami 3470).
- 7 Korrupsiyaga qarshi kurashish virtual akademiyasi elektron platformasida o‘qitishni tashkil etish tartibi to‘g‘risida”gi nizom (30.10.2024 yilda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 3565)

NIZOMLAR VA KELISHUVLAR

- 1 O‘zbekiston Respublikasi korrupsiyaga qarshi kurashish Milliy kengashi to‘g‘risidagi nizom.
- 2 O‘zbekiston Respublikasi korrupsiyaga qarshi kurashish Hududiy kengashlari to‘g‘risidagi nizom.
- 3 Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, Adliya vazirligi, Davlat boshqaruvi akademiyasi va Huquqni muhofaza qilish akademiyasi tomonidan davlat xizmatchilarini korrupsiyaga qarshi kurashish, manfaatlar to‘qnashuvi va odob-axloq qoidalari bo‘yicha o‘quv kurslarida muntazam ravishda o‘qitish tizimini yaratish to‘g‘risida kelishuv.

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISHGA OID XALQARO HUJJATLAR RO'YXATI

- 1 BMTning Huquqiy tartibotni saqlash bo'yicha mansabdor shaxslarning xulq-atvor Kodeksi. 17.12.1979-yil.
- 2 IHTTning Xorijiy davlat mansabdor shaxslariga pora berishga qarshi kurashish to'g'risidagi Konvensiyasi. 14.08.1997-yil.
- 3 Yevropa Kengashining Korruptsiya uchun jinoiy javobgarlik to'g'risidagi Konvensiyasi. 27.01.1999-yil.
- 4 Yevropa Kengashining Korruptsiya uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlik to'g'risidagi Konvensiyasi. 09.09.1999-yil.
- 5 Terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurash to'g'risidagi xalqaro Konvensiya. 09.12.1999-yil.
- 6 BMTning Offshorlar bo'yicha kommyunikesi. 31.03.2000-yil.
- 7 BMTning Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashish to'g'risidagi Konvensiyasi. 15.11.2000-yil. (2005-yil 23-martda O'zbekiston Respublikasi BMTning Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashish to'g'risidagi Konvensiyasiga qo'shildi).
- 8 XXI asr chorloviga javoblar to'g'risidagi Vena deklaratsiyasini amalga oshirish harakat rejasi. 15.04.2002-yil.
- 9 IHTT doirasida qabul qilingan Korruptsiyaga qarshi kurashish tarmog'ining Istanbul harakatlar rejasi. 10.09.2003-yil. (2010-yil martda O'zbekiston Respublikasi IHTT doirasida qabul qilingan Korruptsiyaga qarshi kurashish tarmog'ining Istanbul harakatlar rejasiga qo'shilgan).
- 10 Yevropa Kengashining Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni aniqlash, olib qo'yish va musodara qilish to'g'risidagi Konvensiyasi (Strasburg, 1990-yil 8-noyabr).
- 11 Korruptsiyaga qarshi kurashning yigirma prinsipi (Yevropa Kengashi Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan. 1997-yil 6-noyabr).

- 12** Davlat xizmatchilari uchun Model xulq-atvor kodeksi (Yevropa Kengashi Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan. 2000-yil 11-may).
- 13** Siyosiy partiyalarni va saylov kampaniyasini moliyalashtirishda korrupsiyaga qarshi yagona qoidalar (Yevropa Kengashi Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan. 2003-yil 8-aprel).
- 14** Moliyaviy tizimdan pul yuvish maqsadlarida foydalanishga yo'l qo'ymaslik to'g'risidagi YEII Direktivasi. 1991-yil 10-iyun.
- 15** Pulni tozalashga qarshi Parij deklaratsiyasi (Yevropa Ittifoqining pulni tozalashga qarshi parlamentar konferensiyasining Yakuniy deklaratsiyasi. 2002-yil 8-fevral).
- 16** BMTning Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashish to'g'risidagi Konvensiyasi (BMT Bosh assambleyasining Rezolutsiyasi bilan 2000-yil 15-noyabrda qabul qilingan).
- 17** BMTning Korrupsiyaga qarshi Konvensiyasi (BMT Bosh assambleyasining Rezolutsiyasi bilan 2003-yil 31-oktyabrda qabul qilingan). (2008-yil 7-iyulda O'zbekiston Respublikasi BMTning Korrupsiyaga qarshi Konvensiyasiga qo'shilgan).
- 18** Terrorizmni moliyalashtirish bilan bog'liq operatsiyalarni aniqlash bo'yicha moliyaviy tashkilotlar uchun FATF tavsiyalari (2002-yil).
- 19** IHTTning Ish yuzasidan xalqaro operatsiyalarni amalga oshirishda chet ellik davlat mansabdor shaxsi tomonidan pora berishga qarshi kurash to'g'risidagi Konvensiya (1997-yil 21-noyabr).
- 20** Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi Amerikaaro konvensiyasi. (Karakas, 1996-yil 29-mart).
- 21** Adliya va xavfsizlik organlari xodimlariga nisbatan korrupsiyaga qarshi kurashish va ularning vijdonli va pok bo'lishini ta'minlash choralari bo'yicha umumiy tavsiyalar (Korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo'yicha Global forum, Vashington, 1999-yil 24-26-fevral).
- 22** AQShning 1977-yildagi Xorijda korrupsiya to'g'risida akti (FCPA, Foreign Corrupt Practices Act of 1977).
- 23** AQShning 2002-yildagi Sarbeynz-oksli akti (Sarbanes-Oxley Act of 2002 (SOX)).

24 AQShning 2010-yildagi Dod-frank akti (The Dodd — Frank Act of 2010).

25 Buyuk Britaniyaning Poraxoʻrlikka qarshi akti (UK Bribery Act of 2010).

"Mazkur eslatma bilan to'liq tanishib chiqdim, korruptsiyaga yo'l qo'ymayman".

Men (F.I.O.) _____

xodim sifatida quyidagi majburiyatlarni o'z zimmamga olaman va o'z ishimni, vazifa va funksiyalarimni halol bajarishga hamda majburiyatlarimga qat'iy rioya qilishga kafolat beraman. Xususan:

- – o'z tashkilotim obro'si va sha'niga putur yetkazishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni tarqatmaslik hamda davlat siriga kiritilgan ma'lumotlar va maxfiy axborot bilan ishlashda qonunchilik hujjatlari talablariga rioya qilish;
 - – o'zimga yuklatilgan vazifa va funksiyalarimni halol, vijdonan, o'z vaqtida bajarish, majburiyatlarimga, ish yuritish va ijro intizomiga qat'iy rioya qilish;
 - – xizmat faoliyatim bilan bog'liq bo'lgan har qanday ma'lumotlarni (shu jumladan), davlat sirlari, XDFU hujjatlar va qonunchilik hujjatlari bilan oshkor etilmasligi lozim bo'lgan boshqa ma'lumotlarni) boshqa shaxslarga oshkor qilmaslik va muhokama etmaslik;
- o'z vazifamni bajarayotganda korruptsiyaviy xatti-harakatlarda qatnashmaslik, shu jumladan, g'ayriqonuniy imtiyozlarni olish yoki boshqacha tarzda g'ayriqonuniy maqsadlarda o'zining yoki boshqa shaxslarning harakatlari yoki qarorlariga ta'sir qilish uchun pul mablag'lari yoki boshqa qimmatliklar ko'rinishida, jumladan:
- pora taklif qilmaslik;
 - va'da bermaslik;
 - pul to'lamaslik, tovlamachilik qilmaslik;
 - bevosita yoki bilvosita pora olishga rozilik bermaslik;
 - pora olmaslik;
 - biron-bir shaxs foydasiga yoki biron-bir shaxs xizmatlaridan foydalanmaslik;
 - mol-mulk yoki mulkiy huquqlarni olmaslik;
 - o'z vakolatlarimni suiiste'mol qilmaslik;
 - atrofdagi shaxslar tomonidan korruptsiyaga oid huquqbuzarlikni sodir etish yoki unda qatnashishga tayyorgarlik ko'rish sifatida baholanishi mumkin bo'lgan xulq-atvordan o'zimni tiyish;
 - qonunchilik hujjatlari va Vazirlikning ichki lokal hujjatlariga muvofiq manfaatlar to'qnashuvi kelib chiqishini oldini olish choralarini ko'rish va manfaatlar to'qnashuvi yoki uning kelib chiqish ehtimoli haqida o'zimga ma'lum bo'lishi bilan darhol ish beruvchini yoki uning o'rnini bosadigan shaxslarni yoki Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish hamda Korruptsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari xodimlarini xabardor qilish;

- xodimlar tomonidan sodir etilgan yoki sodir etilishi rejalashtirilayotgan korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqidagi faktlar aniqlansa, ushbu ma'lumotni aloqa kanallari orqali yoki to'g'ridan-to'g'ri Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasiga taqdim etish majburiyatini olaman.
- – xodim sifatida faoliyat davrimda xalqaro munosabatlarga kirishishda yoki xorijiy (chet) davlatlarga chiqishda faqat ish beruvchi bilan kelishilgan va uni xabardor qilgan holda hamda uning roziligi bilan chiqish;
- – har qanday maqsadlar (xizmat safari, davolanish, ta'til, sayohat) bilan xorijiy davlatlarda bo'lgan davrimda xorijiy davlatlarning qonunchiligi to'g'risida umumiy ma'lumotlarni bilish, umume'tirof etilgan yurish-turish qoidalaridan (etiket) xabardor bo'lish;
- – rasmiy-norasmiy marosimlarni o'tkazish paytida umume'tirof etilgan yurish-turish qoidalari (etiket)ga rioya qilish;
- – xizmat-safarining maqsadi va vazifalari samarali amalga oshirilishini ta'minlash;
- – O'zbekiston Respublikasi fuqarosi sifatida davlat manfaatlari himoyasini ta'minlash va olg'a surish;
- – O'zbekiston Respublikasini munosib ravishda taqdim qilish;
- – xorijiy davlatlarga chiqishga oid pasport-viza rejimiga qat'iy rioya etish;
- – xorijiy davlatlarning idoralari va harbiy tuzilmalari ishlarida ishtirok etmaslik;
- – xorijiy davlatlarda o'tkaziladigan turli namoyishlar, mitinglar va ommaviy boshqa tadbirlarda har qanday holatda ham ishtirok etmaslik;
- – O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlari bilan taqiqlangan turli faoliyat, o'yinlarda (qimor) ishtirok etmaslik va taqiqlangan boshqa xatti-harakatlarni amalga oshirmaslik;
- – mamlakatimiz hududida tan olinmagan, milliy mentalitetimizga mutlaqo yot bo'lgan, turli buzg'unchilik, shafqatsizlik va urushlarni targ'ib qiluvchi hamda milliy manfaatlarimizga zid bo'lgan turli xil oqimlarga qo'shilmaslik va ular faoliyatida har qanday usulda ishtirok etmaslik;
- – O'zbekiston Respublikasi fuqarosi sifatida mamlakatimiz obro'siga putur yetkazishi mumkin bo'lgan har qanday xatti-harakatlardan tiyilish;
- – davlat va vazirlik obro'sini qo'llab-quvvatlash, o'zimning va boshqalarning qadr-qimmatini hurmat qilish;
- – moddiy jihozlar va boyliklarning saqlanishini va ulardan maqsadli va samarali foydalanishni ta'minlash.

O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlari va Vazirlikning ichki lokal hujjatlarida nazarda tutilgan korrupsiyaga qarshi talablarni buzgan, shuningdek, o'z ishim, vazifa va funksiyalarimni halol bajarmagan hamda majburiyatlarimga rioya qilmagan taqdirimda, menga nisbatan mehnat shartnomasini bekor qilishgacha bo'lgan intizomiy jazo choralari va qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa javobgarlik choralari qo'llanilishiga roziman va bu haqida rasman ogohlantirildim.

(lavozim) (F.I.O.)

(imzo)

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI

KOMPLAYENS VA KORRUPSIYAGA QARSHI
ICHKI NAZORAT BOSHQARMASI

**SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMI XODIMLARI UCHUN KORRUPSIYAGA QARSHI
KURASHISHGA DOIR**

T O S H K E N T – 2 0 2 6

